



# ACADEMIC SPECTRUM

3-Son (2026-yil, Mart)

*Ilmiy-metodik jurnal*  
*Научно методический журнал*  
*Scientific and Methodical Journal*

**BUXORO - 2026**



# **ACADEMIC SPECTRUM**

**Ilmiy-metodik jurnal  
Научно методический журнал  
Scientific and Methodical Journal**

**№3-Son (2026-yil, Mart)**

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy  
komunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrdagi  
№1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan**

**BOSH MUHARRIR:**

**Axmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li**

**Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**

**TAHRIRIYAT KENGASHI A‘ZOLARI**

**Кулешов Валерий Владимирович** - pedagogika fanlari doktori, professor  
Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

**Andriyenko Yelena Vasilyevna** - pedagogika fanlari doktori, professor  
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va  
texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Romm Tatyana Aleksandrovna** - pedagogika fanlari doktori, professor  
(Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim  
instituti, Novosibirsk, Rossiya).

**Eko Sri Margianti** - Gunadarma universtiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor (Indoneziya).

**Zaripov Lochin Rustamovich** - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
(O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy  
ta‘limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O‘quv-uslubiy faoliyatni  
takomillashtirish boshqarma boshlig‘i).

**Nazarov Akmal Mardonovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor  
(Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini mudiri).

**Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li** - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro  
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

**Ganjiyev Feruz Furqatovich** - psixologiya fanlari doktori (DSc), (Buxoro  
davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

**Ismatova Dilafuz Tuymuratovna** - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

**Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich** - pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar  
kafedrasini dotsenti).

**Tilavov Muxtor Hasan o‘g‘li** - psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD), (Buxoro davlat universiteti “Psixologiya” kafedrasini dotsenti).

**Mas‘ul kotib:**

**Dehqonboyev Shohjahan Oybek o‘g‘li** – Buxoro davlat universiteti  
Psixologiya kafedrasini o‘qituvchisi



**EDITOR-IN-CHIEF:**

**Akhmadov Nazirjon Rahmat o‘g‘li**

Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor.

**MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Kuleshov Valery Vladimirovich** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Academician of the Russian Academy of Sciences (Ukraine).

**Andrienko Elena Vasilyevna** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of Physics, Mathematics, Information and Technological Education, Novosibirsk, Russia).

**Romm Tatyana Aleksandrovna** — Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Novosibirsk State Pedagogical University, Institute of History, Humanities and Social Education, Novosibirsk, Russia).

**Eko Sri Margianti** — Rector of Gunadarma University, Doctor of Economic Sciences, Professor (Indonesia).

**Zarirov Lochin Rustamovich** — Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor (Research Center for the Development of Higher Education under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan, Head of the Department for Improving Educational and Methodological Activities).

**Nazarov Akmal Mardonovich** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor, Head of the Department of Psychology, Bukhara State University.

**Rustamov Shavkat Shuhrat o‘g‘li** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

**Ganjiyev Feruz Furqatovich** — Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University

**Ismatova Dilafruz Tuymuratovna** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

**Mukhlisov Sodiqjon Saidjonovich** — Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor, Department of Information Systems and Digital Technologies, Bukhara State University.

**Tilavov Mukhtor Hasan o‘g‘li** — Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor, Department of Psychology, Bukhara State University.

**EXECUTIVE SECRETARY:**

**Dehqonboyev Shohjahon Oybek o‘g‘li** — Lecturer, Department of Psychology, Bukhara State University.

**ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:**

**Ахмадов Назирджон Рахмат угли**  
доктор философии по психологии (PhD), доцент.

**ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОГО СОВЕТА:**

**Кулешов Валерий Владимирович** — доктор педагогических наук, профессор, академик Российской академии наук (Украина).

**Андриенко Елена Васильевна** — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт физики, математики, информационного и технологического образования, г. Новосибирск, Россия).

**Ромм Татьяна Александровна** — доктор педагогических наук, профессор (Новосибирский государственный педагогический университет, Институт истории, гуманитарного и социального образования, г. Новосибирск, Россия).

**Еко Sri Margianti** — ректор Университета Гунадарма, доктор экономических наук, профессор (Индонезия).

**Зариров Лочин Рустамович** — доктор педагогических наук (DSc), профессор (Научно-исследовательский центр развития высшего образования при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан, начальник управления по совершенствованию учебно-методической деятельности).

**Назаров Акмал Мардонович** — доктор психологических наук (DSc), профессор, заведующий кафедрой «Психология» Бухарского государственного университета.

**Рустамов Шавкат Шухрат угли** — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

**Ганджиев Феруз Фуркатович** — доктор психологических наук (DSc), доцент кафедры психологии Бухарского государственного университета

**Исматова Дилафруз Туймуратовна** — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

**Мухлисов Содикжон Саиджонович** — доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент кафедры «Информационные системы и цифровые технологии» Бухарского государственного университета.

**Тилавов Мухтор Хасан угли** — доктор философии по психологии (PhD), доцент кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

**ОТВЕТСТВЕННЫЙ СЕКРЕТАРЬ:**

**Дехконбоев Шохжахон Ойбек угли** — преподаватель кафедры «Психология» Бухарского государственного университета.

**Bahronova Iroda Otabek qizi**

NavDU Tillar fakulteti Lingvistika mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

### **BOLALAR NUTQINING SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI IJTIMOY OMILLAR**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bolalar nutqiga ta’sir ko’rsatuvchi ijtimoiy sabablar, oila muhiti, maktabgacha ta’lim muassasasi, muloqotning roli haqida fikr yuritiladi. Nutqni rivojlantiruvchi mashg’ulotlarning samarasi, bolalar nutqining kechikish sabablari, uning oldini olish, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini metodlar yordamida rivojlantirishga oid mulohazalar keltiriladi. Bolalar nutqining rivojlanishidagi o’zgarishlarga misollar keltirilib, har bir bosqich xususiyatlari yoritiladi.

**Kalit so’zlar:** bola, ijtimoiy omil, oila muhiti, muloqot, so’z zaxirasi, tilni egallash, loyqa nutq, dizatriya, diksiya, metod, rivojlantiruvchi o’yin.

**Бахронова Ирада Отабек кизи**

магистрантка 1-го курса факультета иностранных языков, специализация «Лингвистика»,  
Навоийский государственный университет

### **СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ, ОКАЗЫВАЮЩИЕ ВЛИЯНИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДЕТСКОЙ РЕЧИ**

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются социальные факторы, влияющие на развитие детской речи, семейная среда, учреждения дошкольного образования, а также роль общения. Анализируется эффективность занятий, направленных на развитие речи, причины задержки речевого развития у детей, пути их профилактики, а также представлены размышления о развитии речи детей дошкольного возраста с использованием различных методических подходов. Приводятся примеры изменений в развитии детской речи и раскрываются особенности каждого этапа.

**Ключевые слова:** ребёнок, социальный фактор, семейная среда, общение, словарный запас, усвоение языка, нечеткая речь, дизартрия, дикция, метод, развивающая игра.

**Bahronova Iroda Otabek qizi**

1st-year Master’s student, Faculty of Languages, Linguistics specialization, Navoi State University

### **SOCIAL FACTORS AFFECTING THE DEVELOPMENT OF CHILDREN'S SPEECH**

**Abstract.** This article discusses the social factors influencing children’s speech development, the family environment, preschool educational institutions, and the role of communication. It examines the effectiveness of speech-developing activities, the causes of delayed speech in children, methods of preventing such delays, and considerations on developing the speech of preschool-aged children through various methodological approaches. Examples of changes in children’s speech development are provided, and the characteristics of each developmental stage are described.

**Keywords:** child, social factor, family environment, communication, vocabulary, language acquisition, unclear speech, dysarthria, diction, method, developmental game.

Bugungi kunda bolalar nutqining rivojlanishi ijtimoiy yondashuv bilan bog’liq holda kechadigan jarayon bo’lib, uning nutqiy imkoniyatlarini ham belgilovchi omildir. Bunda bola ruhiy va nutqiy jihatdan shakllanadi va fikrlash jarayoniga ham bevosita ta’sir qiladi. Ushbu jarayondagi muhim bosqichlardan biri muloqotga tayyorlanish davridir. Bu davrda bola atrofni o’rab turgan borliqni predmetlar, keyinchalik esa unga bo’lgan munosabat misolida o’rganadi. Predmet faoliyati jarayonida bola uning dastlab material xususiyatlarini, so’ng boshqa predmetlar bilan bog’lanishini o’rganadi, predmet faoliyatining o’sishi davomida ular nom oladi, so’ng atrofdagi kishilar bilan jonli suhbat yuzaga keladi, buning asosida esa bolada tushuncha munosabati voqelanadi. Borliqni idrok

etish jarayoni ayni shu davrdan boshlanib, bola ijtimoiy muhit ta’sirida predmetlarning nima ekanligini, keyinchalik belgi xususiyatlarini anglaydi.

Bolalarda nutq rivojlanish davriyligi 3 bosqichga ajratiladi:

1. Tayyorlanuv (1 yoshdan);
2. Maktabgacha bo’lgan dastlabki tilni egallash bosqichi (3 yoshgacha);
3. Maktabgacha bo’lgan davr (7 yoshgacha)<sup>1</sup>.

Tayyorlanuv davrida bolalar turli qiyqiriqlar, yig’i, kattalar ovozigga taqlidan turli unli va undosh tovushlarni chiqarishadi, bir-ikkita so’zlarni ikkilantirish yo’li orqali hosil qilishadi. Buyruq fe’llarni tushunadi, shunga mos tarzda harakat qiladi. Bog’cha yoshidagi, ya’ni 2-3 yoshli bolalar so’zlarni bemalol aytadi, qisqa jumla orqali fikrini bildira oladi, tez-tez savol bilan murojaat qilishadi, munosabatga kirishadi. Ayniqsa, shu jarayonda ota-onalar bolalarning savollariga to’liq javob berishi, nutqiy rivojlanishiga e’tiborli bo’lib, uni rag’batlantirishi kerak. Maktabgacha bo’lgan davrda bolalarda so’z boyligi keng bo’ladi, ba’zi tovushlarni nuqsonli talaffuz etishi ko’p kuzatiladi. Ayrim so’zlarning ma’nolarini anglamasa-da, 7-8 yoshdan so’ng tushuna boshlaydi.

Bola nutqining rivojlanuv bosqichida ijtimoiy omillar yetakchi rol o’ynaydi. Bunda oila muhiti alohida ahamiyatga ega. Bola kattalar kabi barcha so’zlarning leksik, grammatik, pragmatik ma’nosini anglamaydi, shu bois ular aytgan so’zlarni takroran qaytaradi, nutq ohangi ham taqlidiy ko’rinishda bo’ladi. Agar ota-ona bolaga baland ovozda gapirsa, ko’p taqiq qo’ysa, bola nutqiy faoliyatida cheklanish kuzatiladi va bu holat uning ruhiyatiga ham ta’sir qiladi. Tajribalarda ko’rinadiki, bola aksariyat vaqt davomida ona bilan muloqot qilsa-da, otaning nutqiy faoliyati unga ko’proq namuna bo’ladi. Agar ota tomonidan tez-tez qo’pol so’zlar ishlatilsa, bola bevosita uni eshitadi va turli joyda takrorlaydi. Bu esa keyinchalik nutqiy faoliyat jarayonining salbiy kechishiga olib keladi. Bolaga tanbeh bermasdan tushunmay qo’llayotgan so’zlarning ma’nosini tushuntirish, uni jamoat joylarida, kattalarga, umuman, muloqot jarayonida qo’llab bo’lmasligini to’g’ri singdirish kerak. Bola tayyorlanuv davridan boshlab buyruq fe’llarni (“ol”, “tegma”, “qilma”) yaxshi anglay boshlaydi. Biroq ortiqcha “tegma”, “qilma”, “mumkin emas” degan buyruqlar bola uchun aks ta’sir qilishi mumkin. Ortiqcha cheklov bola uchun ko’pincha qo’rquvga, ishonchsizlikka sabab bo’ladi.

Ijtimoiy omillarning yana biri bu maktabgacha ta’lim muassasasi bo’lib, bola mazkur yosh davrida o’zini o’rab turgan atrof-muhit, undagi hodisalar bilan nisbatan tanish bo’ladi. Chunki bolaning kundalik hayotida ifodalanuvchi so’zlar muntazam ravishda foydalaniladigan narsa-buyum, xatti-harakatlarni nomlash vazifasini bajaradi. Kuzatuvlar natijasida maktabgacha ta’lim muassasasidagi bolalar “mushuk, kuchuk, ot, shkaf, televizor, choynak, qoshiq, yemoq, ichmoq, o’ynamoq” kabi narsa-buyumlar, hayvonlar va harakatlar tasvirini nutq orqali ifodalashda savollarga qiynalmay javob berishgan. Bu javoblar o’ziga xos tovush ifodasi va ohangi orqali ajralib turadi<sup>2</sup>. Buning sababi har bir bola turlicha muhitda, sharoitda o’sadi. Ota-ona muloqotda sokin va erkin so’zlashsa, bola ham shu tarzda gapiradi. Tengdoshlari bilan ham muloqotga kirishuv jarayoni osonlashadi.

Ta’lim muassasasidagi tarbiyachilar nutqi ham bolalar uchun oiladagi muloqot kabi muhim. Bolalarning nutqi ustida ishlash, qiziqarli, interfaol o’yinlar tashkil etish va rag’batlantirish asosiy rol o’ynaydi. Chunki bola bu davrda o’yinqaroq va tez moslashuvchan bo’lib, turli metod va usullar samarali bo’ladi, bola oson o’zlashtiradi. Shuning uchun til o’rgatish ham ayni shu yoshdan boshlanadi. Hozirda keng qo’llanayotgan “Koptok va so’z” metodi ayni maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo’ljallangan bo’lib, bola motorikasi va nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Chet tili darslarida ham bu usulni qo’llash bolalar uchun ancha foydali bo’ladi. Bunda ikki kishi ishtirok etadi: bolalarning qo’lida bittadan koptok, unda turlicha so’zlar va raqamlar aralash holda yozilgan. Ma’lum vaqt belgilanadi va bu vaqt ichida aralash so’z, raqamlar orasidan koptokni aylantirib, aytilgan so’zni topib, uning ingliz tilidagi (yoki ruscha) tarjimasini baland ovozda aytishi kerak bo’ladi. Masalan: vazifa qalam so’zini topish, bola topadi va “pen” (yoki “карандаш”) deb ovoz chiqarib aytadi. Kim birinchi bo’lib shartni bajarsa, o’sha g’olib sanaladi va keyingi ishtirokchi bilan ham o’yinni davom

<sup>1</sup> Sayidiraximova N. Bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2012. – B. 10.

<sup>2</sup> Qurbonova M. O’zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. – Toshkent, 2014. – B. 20.

ettira oladi. Shu kabi yana bir qator rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar o‘tkazilib borilsa, bola ham ruhiy, ham aqliy jihatdan rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda loyqa nutq va dizatriya faqat suhbat nutqida namoyon bo‘ladi. Keyin yozish bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Diksiyaning buzilishi imlo xatolarining sabablaridan biridir. Shuning uchun qanchalik tez to‘g‘ri nutqni rivojlantirish boshlansa, kelajakda bola shunchalik muvaffaqiyatli bo‘ladi<sup>3</sup>. Bugungi kunda aksariyat ota-onalar bolalarning kech tili chiqishi yoki ayrim harflarni to‘g‘ri talaffuz qila olmayotganidan shikoyat qilmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri bola bilan go‘daklik davridan boshlab noto‘g‘ri talaffuz orqali muloqot qilishdir. Bola bilan xuddi uning tilida emas, balki kattalardek munosabatga kirishish lozim. Ba‘zan ota-onalar erkalash ma‘nosida so‘zlarni xato talaffuz qiladilar. Bola ham keyinchalik eshitgani kabi takrorlaydi va shunga o‘rganib qoladi.

“Bola hamon chinqirab yig‘lar, xarxasha qilar edi:

– **Issiq manoj! Issiq manoj obeying!**

– Unaqasini qayoqdan topaman! – Juvonning toqati toq bo‘ldi shekilli, dumalayotgan o‘g‘lini yerdan yulqib ko‘tardi. Orqasiga bir-ikki shapatiladi” (“Dunyoning ishlari”, 25-b.). Ushbu misolda ko‘rib o‘tganimizdek, bola tilidan muzqaymoq so‘zi erkalanib, “manoj” tarzida aytilgan va bu taxminan 2-3 yoshli bolaning nutqi ekanligini ko‘rsatadi.

Mutaxassislarning ta‘kidlashicha, nutqiy kamchiliklarning ortishiga faqatgina tibbiy omillar emas, balki bola rivojlanayotgan davrdagi kun sayin o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-madaniy sharoitlar ham sabab bo‘ladi. Mehnat bilan doimiy band bo‘lgan ota-onalar o‘z farzandiga kam e‘tiborda bo‘layotgani shu jumladandir. Bandlik darajasi yuqori bo‘lgan oilalarda ona go‘dagiga faqat 12 daqiqagina vaqt ajratishi yoki u bilan muloqot qilishi ko‘p kuzatilmoqda. Kichik yoshdagi bolaning muloqotdoshi aksariyat holatda telefon yoki televizor bo‘lib, bola kun davomida 3-4 soatlab uning zararli nuri ta‘sirida bo‘ladi<sup>4</sup>. Bu esa kelajakda qator salbiy oqibatlarni, jumladan, bola tilining kech chiqishi, so‘zlarni ravon talaffuz qilolmasligi, ko‘rish qobiliyatining sustlashishini keltirib chiqaradi. Bola bilan go‘daklik davridanoq, hatto u tushunmasa ham, muloqot qilish, kitoblarni o‘qib berish, rasmlar orqali borliqni anglatish, qisqa so‘zlarni tez-tez talaffuz qilish, predmet nomlarini, uning xususiyatlarini aytish samarali usul sanaladi. Ota-ona yoki tarbiyachi mashg‘ulotlar davomida asta-sekin so‘zlar ma‘nosini anglatishi, kattalar, tengdoshi bilan qanday muloqotga kirishish kerakligi, jamoat joyida qaysi so‘zlarni ishlatib bo‘lmasligini uqtirishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, bola rivojlanib borar ekan, uning nutqiy va aqliy qobiliyati ham rivojlanadi. Turli xil usullar, kitoblar yordamida muloqotga kirishish esa bolaning tengdoshlariga nisbatan tezroq rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, oilada, bolalar bog‘chasida nutqni rivojlantiruvchi maxsus darslar tashkil etilishi yanada samarali usul sanaladi. Bu esa keyinchalik bolalarning barkamol rivojlanishi, nutqi va tafakkuri o‘shishiga katta xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Sayidiraximova N. Bolalar nutqining psixolingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2012.
2. Qurbonova M. O‘zbek bolalar nutqi leksikasining sotsiopsixolingvistik tadqiqi. – Toshkent, 2014.
3. Goipova N. Bolalar nutqi ustida ishlashda olib boriladigan logoritmik mashg‘ulotlardan foydalanishning o‘ziga xosligi. “Science and education” scientific journal. – Toshkent, 2025.
4. Iskandarova G. Bolaning nutqiy faoliyati kechikishi sabablari va uni bartaraf etishga doir mulohazalar // O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari II. – Toshkent, 2013.
5. Asqarova M., Matchonov S. va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. – Toshkent, 2000.
6. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent, 2019.

<sup>3</sup> Goipova N. Bolalar nutqi ustida ishlashda olib boriladigan logoritmik mashg‘ulotlardan foydalanishning o‘ziga xosligi. “Science and education” scientific journal. – Toshkent, 2025. – B. 308.

<sup>4</sup> Iskandarova G. Bolaning nutqiy faoliyati kechikishi sabablari va uni bartaraf etishga doir mulohazalar // O‘zbek filologiyasining dolzarb muammolari II. – Toshkent, 2013. – B.203, 207.

**MUNDARIJA:**

<b>T/R</b>	<b>Mualliflar</b>	<b>Maqola sarlavhasi</b>	<b>Bet</b>
1	<i>AXMADOV NAZIRJON RAHMAT O'G'LI</i>	THE ROLE OF SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS IN SHAPING POSITIVE BEHAVIOR AMONG ADOLESCENTS	6
2	<i>SHAROPOVA MADINA OBID QIZI</i>	RAQAMLI QARAMLIK (SMARTFON, IJTIMOYIY TARMOQLAR) STRESSI VA IMMUNITET PASAYISHI	10
3	<i>SHAROPOVA ZARNIGOR OBID QIZI</i>		14
4	<i>RAJABOV RASULBEK SOBIR O'G'LI</i>	O'ZBEK OILASIDA MEHR, HURMAT VA MAS'ULIYAT KABI PSIXOLOGIK OMILLAR IJTIMOYIY BARQARORLIKNING ASOSIY TARKIBIY QISMLARI	18
5	<i>MA'RUFJONOVA MARJONAXON ALISHER QIZI</i>	EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF NATIONAL RELIGIOUS VALUES IN TEACHING ENGLISH TO DIFFERENT AGE GROUPS	21
6	<i>BAHRONOVA IRODA OTABEK QIZI</i>	BOLALAR NUTQINING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOYIY OMILLAR	24
7	<i>YOQUBOVA MAFTUNA SHOYIM QIZI</i>	BO'LALAK TARBIYA FANI O'QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIK KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	27
8	<i>RO'ZIQULOVA UMIDA AKBAR QIZI, TUROBOVA ZIYODA SHUHRAT QIZI</i>	MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTI TARBIYACHILARI HAMDA OTA-ONALAR MUNOSABATI ORASIDAGI NIZO VA YECHIMLAR	31
9	<i>JUMAYEV NODIR ZAYNITDINOVICH</i>	O'SMIRLARDA INTELLEKTUAL QOBILIYATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK JIHATLARI	51
10	<i>HAMROYEV TEMURBEK JAMSHID O'G'LI</i>	CHET ELGA MEHNAT MIGRATSIYASI KETGAN OTA-ONALARNING FARZANDLARIDA IJTIMOYIY MOSLASHUV JARAYONINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.	61
11	<i>JALILOV JAVOHIR JAMSHID O'G'LI</i>	O'QUVCHILARDA KASB MOTIVATSIYASINING SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI	66

<b>T/R</b>	<b>Mualliflar</b>	<b>Maqola sarlavhasi</b>	<b>Bet</b>
12	<i>SHAROPOV SUXROB SHODI O'G'LI</i>	O'SMIRLIK DAVRIDA REFLEKSIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING METAKOGNITIV MEXANIZMLARI	69
13	<i>YOQUBOV SODIQJON LATIF O'G'LI</i>	QARLUQ TIL BIRLIKLARI LEKSIKASINING LUG'AT FONDI VA LUG'AT TARKIBI	73
14	<i>OLIMOV LAZIZ YARASHOVICH</i>	SUD-PSIXOLOG EKSPERTI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI	77
15	<i>RAJABOV ELSHOD ERKINOVICH</i>	‘ILTIFOT’ NUTQIY AKTINING BADIY MATNDA VOQELANISHINING FREYM MODEL T AHLILI	83
16	<i>NAZAROV ‘KMAL MARDONOVICH</i>	YOSHLAR PSIXOLOGIYASI VA MA‘NAVIY TARBIYA: INNOVATSION JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDA MA‘NAVIY QOBILIYATNI OSHIRISH YO‘LLARI	88
17	<i>RUST‘M‘V SH‘VK‘T SHUHR‘T ‘G‘LI</i>	TRANSFORMATSIYA JARAYONIDAGI TA‘LIM TIZIMIDA TALABALARNING ILMIY VA IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	94
18	<i>DEHQONBOYEV SHOHJAHON OYBEK O'G'LI</i>	SUD PSIXOLOGIK EKSPERTIZASIDA STRESS HOLATLARINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH	101
19	<i>AXMEDOVA ZARINA RAHMAT QIZI</i>	LOYIHAVIY YONDASHUV ORQALI KELAJAK O‘QITUVCHILARNI FASILITATORLIK FAOLIYATIGA TAYYORLASH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	108
20	<i>AXMEDOVA ZARRINA JAMILOVNA</i>	TALABALARNING DUAL TA‘LIM TIZIMIGA MOSLASHUVINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	117
21	<i>GANJIYEV FERUZ FURQATOVICH</i>	AGRESSIV O'SMIRLARDA DESTRUKTIV AXBOROTLARNI YUZAGA KELISHINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARI	122
22	<i>HAMROYEV JASUR UMEDOVICH</i>	THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE STUDY OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF MODERN YOUTH	126
23	<i>SHAROPOV SUXROB SHODI O'G'LI</i>	O'SMIR VA TALABA YOSHLARIDA ICHKI MOTIVATSIYA VA REFLEKSIV TAFAKKUR O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	130



<b>T/R</b>	<b>Mualliflar</b>	<b>Maqola sarlavhasi</b>	<b>Bet</b>
24	<i>HAFIZOV DIYORBEK ZARIF O'G'LI</i>	BOLALAR VA AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIK, PEDOFILIYA VA ERTA NIKOH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA HUQUQIY MEXANIZMLAR	136
25	<i>ASHRAPOV NODIRBEK NAMOZ O'G'LI</i>	SPECIFIC PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOCIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF THE COGNITIVE SYSTEM OF ADOLESCENTS	140
26	<i>MURODOVA MADINA ATAJON QIZI</i>	IJTIMOYIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH, UYQU SIFATI VA TALABA QIZLAR PSIXOLOGIK HOLATI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	143
27	<i>ABDUVORISOVA MAFTUNAXON ABDUVOXID QIZI</i>	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI	147



Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Buxoro viloyat Axborot va Ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi tomonidan 2025-yil 26-dekabrda №1273056 sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,  
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy  
**Elektron manzil:** <https://aspec.uz>  
Telegram raqami: -998 (91) 245-46-66

*“ACADEMIC SPECTRIUM” ilmiy-metodik jurnal.*  
*Buxoro, 2026 № - 3-Son (2026-yil, Mart)*